

AMIR TEMUR SHAXSI FRANSIYA NIGOHIDA

*Jomurotov Shohzod**Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi**E-mail: shohzodjomurotov747@gmail.com*

Anotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temurning buyuk davlati, olib borilgan diplomatiyasi Fransiya qirollari bilan yozishmalari, olimlarining Amir Temur shaxsi haqidagi qarashlari, YUNESKO tomonidan o`tkazilib kelinayotgan Amir Temur haftaligi kabi mavzular to`g`risida fikr yuritilgan.

Kalit so`zlar: Diplomatiya, Temurshunos, Marsel Brian, Karl VI, Lyusen Keren.

“Amir Temur shaxsini idrok etish-tarixni idrok etish demakdir. Amir Temurni anglash-o`zlikni anglash demakdir. Amir Temurni ulug`lash- tarix qariga chuqur ildiz otgan tomirlarimizga, madaniyatimizga, qudratimizga asoslanib buyuk kelajagimizga asoslanib ishonchimizni mustahkamlash demakdir”¹

Islom Karimov

Amir Temur 1336-yil 9-aprelda Keshda tavallud topdi. Otasi Muhammad Tarag`ay o`g`lini yaxshi tarbiyalashga harakat qila boshladi va xuddi shunday dovyurak inson sifatida tanildi. Bu davrda chig`atoy ulusi movarounnahrda yurishlar boshladi. Amir Temur o`sha davrda 24 yoshda edi va Tug`luq Temur yoniga borib dorug`achi vazifasini oldi va shu orqali siyosiy kurash maydoniga kirib keldi. Tinimsiz urushlar orqali 1370-yillarga kelib davlatini tikladi. Shu zaylda boshqa hududlar bilan elchilik, savdo, do`stona munoabat va diplomatik aloqalar o`rnata boshlaydi. Amir Temur diplomatiyasining o`ziga xos tomonlaridan biri-bu o`zining barcha murojatlarida hatto qat`iy talab shaklida yozilgan nomalarida ham sharq diplomatiyasi etikasiga roiya qilgan. Ayni paytda Sohibqiron ayrim hukmdorlarning qo`pol shaklda, ba`zida esa jahl va jaholat bilan yozilgan nomalariga hamma vaqt o`z fikrini aniq bayon qilgan holda javob maktubini yo`llagan. Sohibqironning Fransiya qirollari Karl VI ga yo`llagan maktubida “ Salom va tinchlik e`lon qilaman” degan so`zlar bitilgani buni yaqqol tasdiqlaydi. Sohibqironning o`sha davrda Fransiya qirollari bilan diplomatiyasini ko`rib o`tadigan bo`lsak o`sha davrda Fransiya qirollari Karl VI bilan 1394- va 1399-yillarda olib borgan yozishmalari bevosita katta ahamiyatga egadir. 1402-yilda Karl VI Amir Temur bilan mustahkam siyosiy aloqalarni o`rnatishga intildi. Ayni paytda Fransiya qirollari ham savdo va do`stlik aloqalarini o`rnatishdan manfaatdor ekanligi bayon etilgan edi. Amir Temurning Fransiya qirollari bilan ikkinchi maktubini bevosita 1402-yil 1-avgust sanasi bilan belgilanadi. Har ikkala maktubni ham arxiyepiskop Ioann III tomonidan Parijga yetkazadi. Bu ma`lumotlar

shuni ko`rsatadiki bu davrda nafaqat yevropa mamlakatlari bilan balki Fransiya qirollari bilan ham Sohibqiron yaxshi diplomatik aloqalar va savdo sotiq ishlarni olib borganligini bilib olishimiz mumkin. Amir Temur asosan savdo sotiq va tijoratni o`rnatishga xarakat qiladi va mashhur iborani maktublarida keltirib o`tadi, “ Dunyo savdogarlar bilan oboddir”² degan mashhur so`zlarni fransiya qiroliga yo`llagan maktubida ko`rishimiz mumkin. Bularning hammasi o`sha davrda Amir Temurning qanchalar ulkan saltanat va buyuk davlat barpo etgani hech kimga sir emasdi. O`sha davrga 1-Prezidentimiz Islom Karimov shunday tarif beradilar: “ Amir Temurning asosiy tarixiy xizmati shundan iboratki, aynan uning hukmronligi davrida Yevropa va Osiyo qit`alari ilk bor o`zlarining bir geosiyosiy maydonda yashayotganlarini his etdilar”³ Amir Temur shaxsini vatanimizda balki butun dunyoda o`rganish ayniqsa Fransiyada bunga alohida etibor va imkoniyatlar yaratildi yuqorida ko`rib o`tganimizdek elchilik aloqalari va savdo qadimdan rivojlangan. Keyingi davrda ham madaniy aloqalar rivojlanganligi bilan davom etdi. Fransuz sharqshunoslarining Amir Temur va Temuriylar davri tarixini o`rganish tarmoqlari keng bo`lib, ular o`sha davr boshqaruv va harbiy tizimini, madaniyat, dini, falsafasi va ilmiy tafakkurini alohida yoritadi. San`at va memorchilik esa fransuz olimlari uchun doimiy qiziqish mavzusidir. Temuriylar uyg`onish davriga bag`ishlab yozgan asarlari, o`tkazgan ilmiy anjumanlari va ko`rgazmalari shundan dalolat beradi. Sho`rolar davrida Amir Temur to`g`risida iliq so`z aytish ayb, hatto jinoyat hisoblangan bir paytda 1987-yil 22-martda Parijda “ Temuriylar davri tarixi va san`atini o`rganish va fransuz-o`zbek madaniy hamkorligi” uyushmasi tuzilgan. Bu tashkilot Amir Temur va temuriylar davri tarixi va madaniyatini targ`ib qilish borasida dunyodagi birinchi tashkilot hisoblanadi. Buning dalili sifatida Fransuzlar Samarqand, Shahrisabz, Buxoro, Hirot, Balx va sharqning boshqa hududlaridagi memorchilik durdonalarini bunga misol qilib ko`rsatadilar. Shu maqsadda uyushma turli temurxonlik kechalar, anjumanlar, ko`rgazmalar o`tkazilib kelinayotganligi ma`lum. Ayni paytda Temuriylarning haqiqiy ixlosmandi bo`lmish uyushma a`zolari fransuzlarni Amir Temur saltanatini poytaxti “Samarqand yo`li” dan yurishga, Sohibqironning poytaxti moviy gumbazlariga mahliyo bo`lishga undaydi. Hozirgi kunga kelib fransuz olimlarining Amir Temur haqida yaratgan asarlar juda ko`pni tashkil etadi. Ular orasida Lyusyen Kerenning yaratgan asarlari va ko`plab chop ettirgan maqolalari alohida o`rin egallaydi. 1961-yil O`zbekistonga qilgan tashrifi yozuvchining hayotida burilish yasadi. Shundan keyingi butun umrini Amir Temur shaxsi va temuriylar sulolasi tarixini o`rganishga sarfladi. Ayni paytda Lyusen Keren o`z asarini boshlashdan oldin sharq va g`arb olimlari yozgan asarlarni sinchkovlik bilan o`rgandi, jumladan Sharafiddin Ali Yazdiy va Ibn Arabshohning solnomalarini Rui Gonsales de Klavixo “ Kundaliklari”ni, mavjud tarixiy xujjatlar, elchilik maktubotlari, va boshqa fransuz sharqshunoslarining asarlari shular jumlasidandir. Shular asosida Keren yani tarixiy xujjatlar, arxiv xujjatlari, ashyoviy va hayotiy malumotlar o`rganib,

taqqoslab, har birining tarixiy dalillar nuqtai nazaridan Amir Temurning mukammal tarjimai holi va obrazini yarata olgan shaxs hisoblanadi. Keren Sohibqiron shaxsiga xolis va mafkuraviy aqidalarsiz yondashadi. To'plagan ma'lumotlari to'g'risida xulosa yuritadi va xulosalar chiqaradi. Sohibqiron shaxsini tahlil qilar ekan Keren harbiy salohiyatga emas balki maqsadlarini aniqlash va unga erishish borasidagi siyosiy zakovatiga, diplomatik mahoratiga va bunyodkorligiga tan beradi. Ayni paytda Lyusen Keren va Akmal Saidov birgalikda "Amir Temur va Fransiya"⁴ kitobi chop etildi. Kitob 13 bob xotima va ilovadan iborat. Ayni paytda bu kitob temuriylar tarixi uchun juda muhim qo'llanma bo'lib asarning har bir bobida temuriylarning va Amir Temurning hayotidagi ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, siyosiy, bunyodkorligi, diplomatiyasi va boshqalarga alohida boblar ajratilgan. Asarning "Amir Temur Fransiya" bobida esa Fransiya qirollarining Amir Temur bilan olib borilgan aloqalari o'rin olgan O'tgan asrlar mobaynida Deni Didro, Sharl Monteysko, Viktor Gyugo, Marsel Brion, Volter va boshqa olim va adiblar Temur va temuriylarga doir asarlar yaratishgan. Ushbu bobning "Temur durdonalari renessansi- Luvr muzeyida" nomli bo'limida temuriylarga tegishli bo'lgan nodir durdonalar qiziqarli ma'lumotlar o'rin ma'lum. Bu kitobning maxsus bobi "Fransuz olimlarining Amir Temur va temuriylarga oid asarlari haqida" nomli bobida fransuz sharqshunoslarining "Temur tuzuklari tarjimai" asariga yozilgan muqaddimasi Langle tomonidan "Amir Temur saltanati" kitobi va boshqalar o'rganilib kelinayotgani quvonarli albatda. L. Keren YUNESKO bosh qarorgohida Amir Temur tavalludining 660-yiligini nishonlash doirasida tashkil etilgan turli mamlakatlar temurshunoslari ishtirokida xalqaro konferensiya hamda "Temuriylar davrida fan, madaniyat va talim taraqqiyoti" haftaligi tayyorlash va o'tkazish faol ishtirok etti. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning farmoniga muvofiq "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi. Yuqorida keltirib o'tganimizdek L.Kerenning asarining xotima qismida Temuriylar haqida Fransiyaning etibori, umuman yevropada qiziqishning sabablari haqida fikr yuritiladi. Ko'rinib turibdiki Amir Temur va temuriylar davlati va ularning barcha sohalarini bugungi kunda juda ko'p mamlakatlar o'rganmoqda qator asarlar yaratilmoqda va Amir Temurning tavallud ayyomalarida har xil yig'ilishlar, konferensiyalar, Amir Temur haftaliklari izchillik bilan olib boriladi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Sohibqironning davlat qurilishi va takomillashishi, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlar, dargoh va devonning tashkil etilganligi, har bir hududning obodonchiligi izchil olib borilganligi bugungi kunda barchaning etiborini o'ziga tortib kelmoqdalar. Bugungi kunga Sohibqiron va Temuriylarni butun dunyo o'rganmoqda demak biz o'zimiz boshqalardan ikki hissa ko'proq mehnat qilib o'rganishimiz asosiy vazifamiz bulishi kerak. 1998-yil Birinchi Prezidentimiz tarixchi va olimlar bilan uchrashuvda haqqoniy tarixni yaratishga alohida etibor beradi va shunday fikrni aytib o'tadiki "Temur Tuzuklarini qo'limga olib o'qiganimda bugungi davlatimizdagi muammolarga yechim

topgan bo`laman”⁵ degan fikrlari Temur tuzuklariga berilgan yuksak baho sanaladi. Mamlakatimizda Temuriylar davrini o`rganish Sobiq ittifoq davrida bir tomonlama qaralgan edi. Mustaqillikdan keyin esa Amir Temur va temuriylar davrini o`rganish yangi bosqichga ko`tarildi. Biz Amir Temur va temuriylarni tarixini o`rganishga alohida darslar tashkil etishimiz, Amir Temur haftaligi va temurxonlik kunlari o`tkazish, temur tuzuklarini chuqur tahlil etish kabi, ishlarni amalga oshirishimiz juda ijobiy natijalarga olib keladi. Qolaversa 1995-yil tashkil etilgan Amir Temur jamg`armasining ishlarini tubdan takomillashtirish ayni paytda uning tashkiliy ishlarini yangi bosqichga ko`tarish kerak zero “Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q”dir.

Foydalaniyalotgan Adabiyotlar:

1. Marsel Brion “Menkim Sohibqiron Jahongir”
2. [www. Daryo.uz](http://www.Daryo.uz)
3. Muhammadjonov O`zbekiston tarixi
4. L. Keren va Akmal Saidov “Amir Temur va Fransiya kitobi” rezyumesi
5. Islom Karimovning 1998-yil Ziyolilar bilan uchrashuvida so`zlagan nutqidan.